

31-dars

Darsning maqsadi: Gap bo'laklari (90–94-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: gap bo'laklari, ularning so'rog'i, gapdagi vazifasi haqidagi bilimlarini aniqlash va mustahkamlash; mashq va topshiriqlardagi terma gap va matnlarni tinglab tushuna olish, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari, kesim gapning markazi ekanini, eganing kesim bilan munosabati va so'roqlarini bilish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o'quvchilarda vatanparvarlik va tabiatni sevish hissini kuchaytirish; milliy qadriyatlarni bilish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: so'zlarning o'z va ko'chma ma'nolarini farqlash ko'nikmalarini takomillashtirish; talaffuz me'yorlariga rioya qila oladi; bo'g'in ko'chirish qoidasiga rioya qila olish, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, o'zlashtirilgan leksik birliklarni matnda qo'llay olish; axborot manbalaridan va darslikdan tashqari (kitob, lug'at) manbalardan ma'lumotlarni izlab topa olish va foydalanish.

Darsning turi: yangi bilim beruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, analiz, "Bliz-so'rov" metodi, ko'rgazmalilik.

Darsning jihozi: multimedia ilovalari, tarqatma materiallar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

-salomlashish, davomatni aniqlash, o'quvchilarni darsga hozirlash.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash.

Husnixat daqiqasi:

Tolib tandir tagidan tanga topdi.

"Bliz-so'rov" metodidan foydalanib, uy vazifasi qanday bajarilganligi aniqlanadi.

- *Nechta gap yozdingiz? Birinchi gapni o'qing. Oxiriga qanday tinish belgisi qo'ydingiz?*

- *Ikkinchi gapda nechta so'z bor? Gap nima haqida ekan?*

- *Nima uchun undov belgisi qo'llaniladi?*

III. Yangi mavzu bayoni.

Saylanma diktant. Matndagi kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni husnixat bilan yozish, ularni qayta tekshirish kerakligi tushuntiriladi.

Mana bir necha kundirki, Karim polvon jilvalarga boy jiyron qashqasini mehr bilan yuvib-tarab, parvarishlaydi.

Har bir so'zga so'roq beriladi.

- *Gapda nima?, kim? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlar qanday so'z bo'lagi bo'lib kelgan?*

- *Nima qildi? So'rog'iga javob so'zlar-chi?*

-Ular gapning qanday bo'laklari hisoblanadi?

-Eganing tagiga qanday chiziq chizamiz? –Kesimning-chi?

O'quvchilar yozganlarini tekshiradilar.

Qoidani yod olish topshiriladi.

Gapda so'zlar ma'nosiga ko'ra, ma'lum bir vazifani bajaradi. Mustaqil ma'noga ega so'z **gapning bo'lagi** deyiladi. **Diyora uni o'zining kutubxonasiga olib kirdi** gapida fikrni o'ziga qaratayotgan bo'lak **Diyora** bo'lsa, u haqida fikr bildiruvchi bo'lak **olib kirdi** so'zidir. Gapdagi boshqa so'zlar gapning asosiy mazmunini to'ldirish uchun xizmat qiladi: **uni o'zining kutubxonasiga**.

IV. Mustahkamlash.

Darslik bilan ishlash. 91-mashq og'zaki bajariladi. Matnda nechta gap borligi aniqlanadi. Har bir gapdagi bosh bo'laklar topiladi.

Dadam menga juda ko'p hikoyalar **aytib beradi**. **Men** ular orqali buyuk bobolarimiz haqida yanada ko'proq ma'lumotga **ega bo'lyapman**. Aynan shu hikoyalar sabab tarixga **qiziqib qoldim**. Ustozimning aytishicha, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi bobolarimizni butun **jahon tanir ekan**. **Men** kelajakda ular haqida yanada ko'proq ma'lumotlarni, ular qoldirgan bebaho asarlarni puxta o'rganib, tarixchi **olim bo'lmoqchiman**.

92-mashq yozma bajariladi.

Gap bo'laklarini tahlil qiling. Qaysi gap bo'laklari gapning asosini tashkil etgan?

Namuna: Quyosh chor atrofga yoyildi. Quyosh yoyildi – gapning bosh bo'lagi. Chor atrofga – asosiy mazmunni to'ldirgan bo'lak.

93-mashq o'quvchilar birga og'zaki bajariladi. "Shamol va bulut" nomli rasmlilik hikoya o'qitiladi. Undagi har bir gapdan bosh bo'laklari toptiriladi.

94-mashqda berilgan she'rdagi bosh bo'lak va asosiy mazmunni to'ldirgan bo'laklar alohida ajratiladi.

Novdalarga o'ralib,

Sovuq shamol bo'zladi.

Qorlar yog'di bo'ralab,

Soyning suvi muzladi. **R.Qudasheva**

Shamol, qorlar, suvi – ega. Bo'zladi, yog'di, muzladi – kesim.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar bugungi darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

V. Uyga vazifa berish.

95-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.